

## INTELLEKTUAL MULK SOHASIDAGI XALQARO REYTING VA INDEKSLARNING TAVSIFI, ZARURLIGI VA AHAMIYATI

**Allayarova Maftuna Almardonovna**  
*Toshkent davlat yuridik universiteti magistri*

Bugungi kunda O'zbekistonda jahon hamjamiyati tomonidan qayd etib kelinayotgan reyting va indekslar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Boisi, xalqaro reyting va indekslar har bir mamlakatning rivojlanish jarayonini o'zida aks ettirib, inson huquqlari himoyasi, davlat boshqaruvi faoliyati samaradorligi, aholining turmush darajasi, tadbirkorlik faoliyati va xorijiy investorlar uchun imkoniyatlarning ta'minlanganlik holati, barqaror iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlik kabi jihatlarning ko'zgusidir.

Intellektual mulk sohasidagi xalqaro reyting va indekslarning tavsifini tahlil qilish bilan bir qatorda reyting va ideks tushunchalarini tahlil qilish hamda bir-biridan farqlarini aniqlashga muvofiqdir.

Reyting (inglizcha) – “baholash, qiymatni aniqlash”. Reyting so‘zining o‘zi reytingni anglatmaydi. Reyting – bu har doim ham rasmiylashtirilmaydigan turli mezonlarga asoslangan ob’ektning holatini har tomonlama baholash hisoblanadi.

Indeks (lotincha) – ro‘yxat, ro‘yxatga olish kitobi, indeks – “raqam va ba’zan belgilar to‘plami”, elementning agregatdagи o‘rni indeksi yoki biror narsaning faolligi, mahsuldarligi, rivojlanishi yoki o‘zgarishi ko‘rsatkichiga aytildi. “Indekslar reytingni shakllantirishda hisobga olinadigan omillar bo‘lib xizmat qiladi. Biroq, ba’zi hollarda ular reytingni yaratishi mumkin.[1]

Intellektual mulk sohasidagi reyting va indekslarni mamlakatimizning ushbu ko‘rsatkichlariga munosabati yuzasidan shartli ravishda ikki guruhga ajratish maqsadga muvofiqdir. Birinchi guruh, O'zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo‘lgan xalqaro reyting va indekslar hamda ikkinchi guruh milliy qonunchiligidizda nazarda tutilmagan, biroq intellektual mulk sohasini baholashga qaratilgan reyting va indekslardan iborat bo‘ladi.

O'zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo‘lgan xalqaro reyting va indekslar bevosita qonunchiligidizda aks ettirilib, bunda, mamlakatning tutgan o‘rni, qayd etilgan ko‘rsatkichlar, prognoz ko‘rsatkichlari hamda belgilangan prognoz ko‘rsatkichlariga erishish uchun amalga oshiriladigan chora-tadbirlar belgilangan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-maydagи “Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlashda ilmiy salohiyat hamda amaliy faoliyat uyg‘unligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-246-son qarori bilan tasdiqlangan ustuvor xalqaro reyting va indekslarning tarkibiy indikatorlari doirasida muntazam past baholanib kelinayotgan soha va tarmoqlarni jadal rivojlanirish bo‘yicha o‘rtaligida uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqish rejasi ishlab chiqilgan. Bunda, mazkur reja bilan har bir xalqaro reyting va indekslarning tarkibiy indikator va

subindikatorlari uchun alohida strategiya hamda maqsadlar aks ettirilib, belgilangan maqsadlarga erishish muddatlari aniq nazarda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risida” PF-6003-son Farmonida ustuvor reyting va indekslarning tarkibiy indikatori sifatida qayd etilgan intellektual mulk sohasiga oid quyidagi indeks va reytinglarni ko‘rib chiqsak.

Global raqobatbardoshlik indeksi (Global Competitiveness Index) indikatorlari tarkibiga kiruvchi intellektual mulkni muhofaza qilish va innovatsion g’oya va yuqori texnologiyalarga ega kompaniyalar soning oshishini rag‘batlantiruvchi ekotizimni shakllantirish belgilab olingan. Bunda istiqbolli startap kompaniyalarni (Startup company) rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash hamda nou-xau (Know how) va intellektual ilmiy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish ta’kidlangan.

Shveytsariyaning Davos shahrida har yili an'anaviy tarzda o‘tkazib kelinadigan Juhon iqtisodiy forumida nafaqat iqtisodiy masalalar muhokama qilinadi, balki ushbu yo‘nalishda tadqiqotlar o‘tkazilish (1979 yildan) natijasida 2004 yildan buyon Global raqobatbardoshlik indeksi yuritilib kelinmoqda. Mazkur indeksning 2019 yildagi nashri indikatorlari 12 ta yo‘nalish va uning tarkibidan o‘rin olgan 103 ta ko‘rsatkichlardan iborat bo‘ldi. Ushbu reytingda Singapur, AQSh, Gonkong, Shveytsariya va Yaponiya davlatlari yetakchilik qilishmoqda. Global raqobatbardoshlik indeksi indikatorlarining 1 va 12 yo‘nalishlaridan bevosita intellektual mulk bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar o‘rin olgan. [2]

Juhon iqtisodiy forumi tomonidan Global raqobatbardoshlik indeksining kichik indikatorlari tarkibiga kiruvchi reyting, indeks va indikatorlarda O‘zbekistonning o‘rni belgilanmagan. Shundan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-iyundagi PF-6003-son Farmoniga

4-ilovaning 1-bandida Juhon iqtisodiy forum delegatsiyasi bilan respublikaning o‘rnini Global raqobatbardoshlik indeksida aks ettirish bo‘yicha muzokaralar o‘tkazish belgilangan va O‘zbekistonning ko‘rsatkichlarini eks ettirish vazifasi qo‘yilgan.

Iqtisodiy erkinlik g‘oyalari sog‘lom jamiyat, toza atrof-muhit, aholi jon boshiga ko‘proq boylik, inson taraqqiyoti, demokratiya, qashshoqlikka barham berish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan Iqtisodiy erkinlik indeksi (Economic Freedom Index) iqtisodiy erkinlik va turli ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlar o‘rtasidagi ijobjiy munosabatlarni o‘zida aks ettiradi. Mazkur indeks iqtisodiy erkinlikni to‘rtta yo‘nalishga yoki iqtisodiy erkinlikning ustunlariga birlashtirilgan 12 miqdoriy va sifat omili asosida baholaydi. Huquq ustuvorligi yo‘nalishi tarkibiga mulkchilik huquqi ustuni tarkibiy indikator sifatida intellektual mulk sohasining ayrim jihatlarini o‘zida qamrab oladi [3].

Shuningdek, 142 ta davlat qonunchiligini qamrab oluvchi, qonun ustuvorligi, qonun hujjatlarini o‘rnatalishi hamda amalda tatbiq etilishini baholovchi Huquq

ustuvorligi indeksini (Rule of law, World Justice Project) tuzishda 4 ta tamoyil (hisobdorlik, adolatli qonunlar, ochiq hukumat, nizolarni to'siqlarsiz va qulay hal etish imkoniyati)ga tayanilib, 2-tamoyil bevosita mulk huquqlari bilan bog'liq jihatlarni o'zida aks ettiradi. Ta'kidlash kerakki, O'zbekiston 2023 yilda ushbu indeksda 142 davlat orasida 78-o'rinni egalladi.[4] Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, huquq ustuvorligi bilan bog'liq masalalar mamlakatning aynan intellektual mulk siyosati darajasini belgilashda ustuvor mavqe kasb etadi [5].

Global innovatsiya indeksi (Global Innovation Index) o'z hisobotida mahsuldarlik o'sishining sekinlashuvi va boshqa zamonaviy muammolar kontekstida innovatsiyalarning joriy global tendensiyalari tahlil qilinadi. Mazkur indeksning biznesni rivojlantirish shuningdek bilim va texnologiya indikatorlarida ko'rsatilgan intellektual mulk to'lovlari va intellektual mulkdan keladigan tushumlar bevosita intellektual mulk sohasiga aloqadordir [6]. Bundan tashqari Xalqaro mulk huquqlari indeksi ((International property rights index) ham mavjud bo'lib, uning asosiy jihatni intellektual mulk huquqlarning himoyalanganlik (ma'muriy, jinoiy, fuqaroviylar) darajasini belgilashga qaratilgan [7].

## REFERENCES:

1. <https://dzen.ru/media/id/5d4c6d93e6cb9b00ad8ff25a/1-reiting-renking-indeks-v-chem-je-raznica-5f0c51764b389b3ac61763c9>
2. А.А.Юлдашов. Важность международных рейтингов и индексов в области интеллектуальной собственности. Обзор законодательства Узбекистана, 117-119, 2020
3. <https://lex.uz/docs/-4838762#-4838954>
4. <https://worldjusticeproject.org/rule-of-law-index/global/2023/Uzbekistan/>
5. Yuldashov A. Intellectual property law policy in Uzbekistan //Global Scientific Review. – 2023. – Т. 12. – С. 80-85.
6. <https://www.globalinnovationindex.org/Home>
7. Юлдашов, А. А. Необходимость участия Республики Узбекистан в международных рейтингах и индексах в области интеллектуальной собственности / А. А. Юлдашов // Электронный инновационный вестник. – 2021. – № 1(18). – С. 18-20. – EDN SZNQKC.